O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 2-oktabr | 378-12-0-Q/24 | Xorazm viloyati hokimligi

Viloyat hududidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorining ijrosi hamda viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 29-iyulda “Viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i M.Xudayberganovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli, 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli, 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-330-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti haqida”gi VI-84-90-12-0-K/24-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.Xudayberganov), viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (D.Niyazmetov):

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori 80-bandiga muvofiq davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan Xonqa va Hazorasp tumanlari hududidan o‘tgan 4R156 avtomobil yo‘lining 8.3 – 9 va 60.2 – 61.1 kilometrlari oraliqlari, Shovot tumani hududidan o‘tgan 4R159 avtomobil yo‘lining 36.1 – 37 kilometri oralig‘i, Urganch tumani hududidan o‘tgan 4R160 avtomobil yo‘lining 3.6 – 5.6 kilometri oralig‘i, Yangiariq va Xiva tumanlari hududidan o‘tgan 4R163 avtomobil yo‘lining 21.8 – 24, 28.2 – 29.2, 35 – 37 kilometrlari oraliqlarida

hamda mahalliy ahamiyatga molik boʻlgan Shovot tumani hududidan oʻtgan 4K981 avtomobil yoʻlining 11.7 – 16.2 kilometri oraligʻida transport vositalari harakat tezligi 100 km/soat tezlikdan 70 km/soat tezlikka oʻzgartirilsin va 3.24 – “70 yuqori tezlik cheklangan”, 3.25 – “70 yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri” yoʻl belgilari oʻrnatilsin.

3. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida rasmiy e’lon qilinganidan keyin kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari S.Bekchanov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**